



Shuningdek, bolalar ovozi rivojlantirish va tarbiyalashda talaffuz yoxud diksiyaning ham roli kattadir. Darsda qo'shiqni ijro etuvchilar uchun asar mazmunini tushunish muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan bir qatorda ijro etiladigan asar tinglovchilarga ham aniq yetib borishi zarur. Shuning uchun ham darsda ijro etuvchi bolalar asar matnini aniq talaffuz qilish qobiliyatiga ega bo'lishlari talab etiladi.

Bolalar birinchi sinfda mungli, sho'x, marsh, raqs, tez va ravon aytiladigan qo'shiqlarni bir-biridan farq qilishini o'rginish lozim. Bolalar tovushlari cho'zimi va balandligi haqida dastlabki tushunchaga ega bo'lmoqlari va shundan keyin nota yozuvini o'rginishga kirishishlari lozim. Dastlabki bolalar "baland" va "past" tovushlar to'g'risida tushunchaga ega bo'ladilar. Rumerning "nota savodiga doir ko'rgazmalari" dan foydalanish biror qo'shiq kuyini shartli ravishda chizib ko'rsatish mumkin.

O'qituvchi bolalar diqqatini aytiladigan qo'shiqda ovozi goh ko'tarib borishi goh pastlanuvchi, ba'zida esa bir xil balandlikda saqlanib turish holatlariga jalb qilish kerak. Buning uchun quyidagi metodik usul foydalidir:

O'qituvchi qo'llarini yuqoriga yoki pastga harakatlantirish yo'li bilan tovushlar balandligini ko'rsatadi. Natijada ko'rib eshitib bolalar idrok qiladilar.

Bolalarga qo'shiqdagi mavjud bo'lgan tovushlarning birin-ketin yuqoriga yoki pastga aytish ham mumkinligini tushuntirish maqsadida tovushqator zinapoya shaklida chizib ko'rsatiladi. Bolalarni tovushlarning xilma-xil cho'zimi bilan tanishtirish lozim.

Cho'zimlarning hammasi birdan ko'tarilmaydi, albatta

Birinchi sinf bolalari aytiladigan qo'shiqlarda uchraydigan chorak va nimchorak notlari o'rganiladi, xolos. Bolalarning "chorak" yoki "nimchorak" cho'zimlarini nomlarini tushunish qiyin bo'lganligi sababli bu so'zlarni shartli ravishda "uzun" va "qisqa" deb tushuntirish mumkin. Birinchi yarim yillikda nota yozuvini o'rginishga tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkaziladi. Ikkinchi yarim yillikda bolalar birinchi oktavaning do tovushidan boshlab, ikkinchi oktavaning do tovushigacha bo'lgan oraliqdagi notalarni nota yo'llariga yozishni ularning mohiyatini bilib oladilar. Shu bilan bir qatorda skripka hamda bas kalitlari bilan tanishadilar. Tovushlar balandligi va kalit belgilarini ko'rsatishdan oldin beshta parallel nota yo'li ko'rsatildi. Notalarning mana shu parallel chiziqlar ustiga va orlig'iga yozilishi, lozim bo'lganda esa nota yo'lining ostidan va ustidan beshtadan qo'shimcha chiziqchalar chizilishi tushutirildi. So'ngra nota yo'lga skripka va bas kalitlari yozib ko'rsatiladi.

Mana shu xildagi mashg'ulotlardan keyin tovushqatorning biror bo'lagi nota yozuviga qarab kuylanadi.

O'quv yilining oxirida bolalar nota yozuvini qo'llanish va qo'shiqlarni tushunib aytish malakasini hosil qila boshlaydilar. Ularda musiqani tinglash va undan ta'sirlanish qobiliyatlari rivojlana boradi. Shuni esda saqlash kerakki kelajakdagi musiqa tarbiyasining barcha asoslari mana shu birinchi sinf mashg'ulotlaridan boshlanadi. Ikkinchi sinf bolalarining umumiy hamda musiqaviy bilim darajasi kengayadi. Qo'shiq aytish uslublari -



notaga qarab aytish, tovushqator bo'lagining kuylash, birinchi oktavaning do tovushidan ikkinchi oktavaning do tovushgacha bo'lgan tovushqatorni o'z ichiga olgan qo'shiqlarni aytish singari birinchi sinf mashg'ulotlarini ikkinchi sinfda davom etaveradi. Qo'shiqlarni o'rgatish jarayonida dastlab notalarining nomlari aytiladi, so'ngra ular kuylanadi.

O'quvchilar 2-sinfda musiqaning ifoda vositalari to'g'risidagi tushunchalarga eg bo'ladilar. O'qituvchi har bir darslarda aytiladigan qo'shiqlarning mazmuni, xarakteri hamda xilma-xil ifoda vositalarini bolalarga anglatishi lozim.

Ikkinchi sinf o'quvchilarida lad haqida tushuncha berildi.

O'quvchilar dastlab ladning eng oddiy elementlari, so'ngra ularning tuzilishi, tarkibi, bosqichlari, xarakteri kabi ma'lumotlarga eg bo'ladilar.

Ladning eng oddiy elementlaridan biri biror bir qo'shiqning tugallangan yoki tugallanmaganligidir. So'ngra qo'shiq kuyning tugallanishida muhim rol o'ynaydigan tovush tonika haqida tushuncha beriladi.

Amaliy mashg'ulotlar paytida aytilgan qo'shiqning tugallangan yoki tugallanmaganligini bolalardan so'rab turish kerak. O'qituvchi bolalarga tanish qo'shiq ohangini kuylaydi va tonikaga yetmasdan turib, to'xtamaydi. Bolalar esa qo'shiqning tugallangan yoki tugallanmaganligini aniqlashlari kerak. So'ngra hammalarini baravariga tonika tovushini aytib tugatishlari lozim.

Tonika o'zlashtirilgandan keyin tonika uchtovushligini o'rgatadi.

Uchtovushlikni dastlab bo'lib-bo'lib aytish, so'ngra qo'shib yaxlit aytishga o'rgatildi.

Bolalarni cho'zimlarning yangi turlari bilan anishtirishdan oldin o'tilgan materiallarning o'zlashtirilganligi tekshirib chiqiladi. Bolalarning uzun va qisqa tovushlar orasidagi farqni anglashlari hamda sekin harakatdan tez harakatga silliq, to'xtamasdan o'ta olishlari sinab ko'riladi.

Shundan keyin bolalarga yarimtalik nota tushuntiriladi. Materialni tez va oson o'zlashtirish maqsadida bo'g'inlari kuylash, qarsak chalish bilan qilinadigan ritmik mashqlardan foydalaniladi.

Bolalar ikkinchi sinfda o'lchovlar haqida ba'zi bir tushunchalarga ega bo'lmoqlari lozim.

Ular kuylayotgan qo'shiqlardagi zarbli bo'g'inlarni ajrata bilishlari kerak. Buning uchun tanish qo'shiqlardan birontasi aytiladi, so'ngra ulardagi zarbli tovushlar soni aniqlanadi. Keyin esa bu zarbli tovushlarning nota yo'lga qaysi uslubda yozilishi ko'rsatiladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan mashg'ulotlar bilan bir qatorda solfedjio aytish elementlarini o'zlashtirishni davom ettirishlari kerak. Buning uchun bolalarga tanish qo'shiqlarning birortasidan parcha olinadi va unga notalar so'zsiz kuylanadi.

3-sinf dasturida yangi ifoda vositalarini o'zlashtirishga anchagina vaqt ajratiladi. Major va minor tonligiga intervallar, o'lchov va cho'zimlarning yangi turlari borasidagi malakalarni oshirish davom ettiriladi. Major va minor tonligida yozilgan qo'shiqlarni eshiish sshlina major va minor uchtovushliklari o'zlashtiriladi. Major va minor tonligida ijro etiladigan



qo'shiqlar mazmuni, minor tonligida yozilgan qo'shiqlar vazmin, qayg'uli kuylanadi. Major tonligida yozilganlari esa sho'x ko'tarinki kayfiyatda bo'ladi va hokazo elementlar yoritib ko'rsatiladi.

Musiqqa eshitish qobiliyatini mustaekamlash uchun tersiya tonini aniq intonatsiya qilgan holda major va minor uchtovushliklarini kuylash maqsadida muvofaqqiyatga erishiladi. Major va minor uchtovushliklarini kuylash bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlar. O'quvchilarning 4-sinf dasturida nazarda tutilgan ton va yarim tonliklarni o'zlashtirishga yordam beradi. Bolalarga intervallarni tushuntirish jarayonida tanish qo'shiqlarni aytirish ularda uchraydigan yondosh tovushlar oralig'idagi katta va kichik sakrashlarning xilma-xil ko'rinishlarda bo'lishini ko'rsatib o'tish lozim. Bu xildagi intervallarni oldin kuylab keyin niqlash zarur. Bularga qo'shimcha qilib o'quvchilarga o'n oltitalik notalar, pazalar, ularning cho'zimplari ham tushuntiriladi.

Sol- major tonligidagi asarlar solfedjio uchun misol qilib olinadi.

To'rtinchi sinfda. Avvalo, oldingi o'quv yillarida olingin bilim va malakalar mustahkamlanadi. Bolalar altersiya belgilari – diez va bemol bilan tanishadilar. Qo'shiqlarni notaga qarab o'rganish va aytish mashg'ulotlari ko'proq o'tkaziladi. Solfedjio qilib aytiladigan mashq va qo'shiqlar aksariyat hollarda tayyorlanmasdan turib to'g'ridan-to'g'ri notaga qarab aytilishi lozim.

Bu xildagi mashqlar bolalarning musiqqa qobiliyatini yanada o'sishiga katta yordam beradi. Umumta'lim maktablarining qolgan barcha sinflarida

ham musiqqa savodini ijrochilik malakasidan ajratmasdan har doim qo'shiq aytish bilan bog'lab olib borish talab qilinadi.

Musiqqa madaniyati darslarida bolalar ovozi tarbiyalab borish serqirarli va murakkabdir.

Bugungi zamonda musiqaviy sezish va ovozi rivojlantirish ko'zda tutiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda uchraydigan qator masalalar, ovozi rivojlantirish va tarbiyalashning ayrim usullari haqida fikr yuritiladi. Musiqqa darslarida o'quvchilar ovozi rivojlanirish va tarbiyalashda ovozi qizdirish juda katta ahamiyatga egadir.

Ovozi qizdirish dars yoki mashg'ulot boshida olib boriladi. Va shu bilan bir qatorda ovozi sozlash, ovoz apparatini asar ustida ish olib borishga tayyorlash vazifasini bajaradi. Ovozi qizdirish quyidagi talablar asosida olib borilsa, ovozi rivojlantirishda yaxshi natijalar beradi.

1. Ovozi qizdirishda qo'llaniladigan vokal xor mashqlari bolalarning ovoz diapazoniga mos bo'lishi lozim.

2. mashq aytishda bolalar pastki hamda yuqori registrda erkin ayta olishlari, zo'riqib yoki qiynalib aytishga yo'l qo'yimaslik kerak.

3. Vokal xor mashqlari asta-sekin shoshilmasdan olib borilishi lozim.

4. mashqlarni aytish vaqtida noto'g'ri talaffuzga aytishga yo'l qo'yimaslik kerak.

5. Mashqlarni o'rtacha balandlikda kuylatish lozim juda baland yoki juda past kuylashga yo'l qo'yimaslik kerak.



6. Kuylash jarayonida ijrochilarning sifatlari va erkin kuylashiga e'tibor berish lozim.

7. barcha tovushlarning bir xil balandlikda kuylanishiga e'tibor berish lozim.

Yuqorida bayon etilgan talablar faqat mashq aytishda emas, balki asarlar o'rgatish jarayonida ham qo'llanilishi talabga muvofiqdir. Shu talablar asosida maxsus va vokal-xor mashqlari va asarlari doimiy ravishda olib borilsa, bolalarning kuylash malakalarini o'sib borishi va ovoz apparatining darsdan-darsga yildan-yilga rivojlanib borishining guvohi bo'lamiz. Darsda bolalarning ovozini rivojlantirishda vokal xor mashqlarining yoki kuyning pastdan yuqoriga tomon harakati yoki yuqoridan pastga tomon harakatida kuylash ham foydalidir. Chunki bu mashqlar bolalar ovoz diapazonini rivojlantiradi va o'stiradi. Musiqa darslari jarayonida o'quvchilar ovozini rivojlantirish va tarbiyalashda vokal-xor mashqlaridan tashqari qo'shiqlar muhim rol o'ynaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qituvchidan tanlanadigan qo'shiqlar shu ijrochilarning ovoz diapazoniga mos bo'lishi lozim. Dars jarayonida shunday hollar bo'lishi mumkin, qisqa vaqt ichida bir necha yoki murakkab qo'shiqni ijro etish rivojlantiriladi. Bunday sharoitda o'qituvchi mashg'ulotlarni kuchli bolalarga tayangan holda tez tempda o'tishga majbur bo'ladi.

Musiqaviy qobiliyat jihatdan bo'sh yoki yetarli tayyorgarligi bo'lmagan bolalar o'rgatiladigan qo'shiqni tez o'zlashtirish

qobiliyatiga ega emaslar, natijada bolalarning charchashi va hatto ovoz apparati kasallanishiga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun ham qo'shiqni o'rgatishda, ovozni rivojlantirishda, tarbiyalashda, mashg'ulot vaqtlarini va har bir qo'shiqqa ajratiladigan vaqtni uning oddiy va murakkabligiga qarab rejalashtirish lozim.

Asosan boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan o'ta murakkab asarlarni o'rganish zararlidir. Shuningdek, katta yoshdagi ijrochilar uchun yozilgan asarlarni o'rgatish boshlang'ich sinflar rejasiga kiritish ovoz apparatini har xil kasalliklarga olib kelishga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars jarayonida o'rtacha murakkab qo'shiqlarni o'rgatish shu bilan bir qatorda badiiy ijrochilikka erishish lozim.

Bolalarning musiqaviy tarbiyasida musiqaviy sezgisini rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega. Darsda bolalarning vokal sezgisini rivojlantirishda quyidagilarni e'tibor bersh kerak:

1. O'qituvchi sinfdan xor jarangdorligiga doimiy ravishda xarakteristika berib borishi lozim.

2. O'qituvchi umumiy xor jarangdorligidan o'zgarishlari diqqat bilan kuzatib, baholab borishi kerak.

3. Darsda qatnashuvchi o'quvchilarning har biri o'z ovozini xorda jarangliligini ongli ravishda sezishga tarbiyalab borishi lozim.

Asarni aniq talaffuz yoki diksiyada kuylash ovoz apparatining erkinligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Sharipova G. "Musiq va uning o'qitish metodikasi" Toshkent-2006;
2. Hasanova X. "Qo'shiqlar sehri" Toshkent-2012;
3. Karimova D., Yakubova Sh. "Bolalar musiqa asarlari ustida ishlash" Toshkent-2016;
4. Umumta'lim maktablarining musiqa darsliklari (1-5 sinflar)
5. Scientific Journal. – 2019. – C. 118-122.
6. Yarashev J. T. Research on Bukhara music heritage through axiologic features //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12. – C. 2181-1601.
7. Yarashev J. T. Bukhorcha" and" Mavrigi" song classes-as a national and noetic spiritual values of the Uzbek nation //Традиционная и современная культура: история, актуальное положение, перспективы. – 2013. – Т. 114.
8. Ярашев Ж. Т. Songs of composite cycles of and mavrichi as musical values for uzbek people //Актуальные проблемы современной науки. – 2012. – Т. 2. – С. 64.
9. Ярашев Ж. Т. МУЗЫКАЛЬНАЯ ТЕРАПИЯ //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5.
10. Dilnavoz O'Ktarnovna Muratova MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI // Scientific progress. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/musiqa-madaniyati-darslarini-tashkil-etishda-o-qituvchining-pedagogik-mahorati> (дата обращения: 11.07.2021).
11. Uktarnovna M. D. PEDAGOGICAL SKILLS OF A MUSIC TEACHER ORGANIZING AND CONDUCTING A LESSON //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – Т. 6. – №. ISPCIEI. – С. 3-3.